

O'ZBEKISTONDA GEOGRAFIYANING SHAKLLANISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17354744>

Rahimova Sevara

G'ijduvon agrotexnologiyalar texnikumi o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy dunyoda xususan O'zbekistonda geografiya ta'limining rivojlanishi va o'qitish metodikasi haqida so'z boradi. Geografiya zamonaviy fanlar tizimida muhim ahamiyat kasb etgan fanlardan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar

jadid, o'qitish metodi, geografiya tarixi, maktab geografiyasi, ilmiy geografiya, Jadidchilik harakati va geografiya ta'limi.

“Jadid” so'zi arabchaso'z bo'lib, “yangi”, “jadidchilik” esa yangilik tarafdorlari degan ma'noni bildiradi. XIX asr oxiri -XXasrning boshlarida Turkistonda chor mustamlakachiligining kuchayishi natijasida o'lkada jadidchilik xarakatining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Jadidlar Misr, Turkiya, Kavkaz, Turkiston va boshqa o'lkalarda siyosiy oqim sifatida yuzaga keldi. Jadidlar o'z davrining eng ilg'or kishilaridir. Bu kishilar jamiyatning qaysi tabaqasiga mansubligidan qat'iy nazar, yangilik, taraqqiyot, ma'rifat va madaniyat tarafdori bo'lib chiqdilar. O'zbekiston maktablarida geografiya ta'limini darsliklar va dasturlari mazmunini, o'qitish metodlari, o'quv moddiy bazasi, kadrlar tayyorlash va boshqa xususiyatlariga ko'ra 4 ta bosqichga ajratish mumkin. 1918-1934 yillarni o'z ichiga oladi. Bu davr o'zbek sovet maktablarida geografiya o'qitishni yo'lga qo'yish bosqichi hisoblanadi. Bu bosqichda yangi tipdagi maktablar bilan eski tipdagi sovet maktabi geografiyasiga asos solinadi. Yangi dasturlar asosida 1922-1923 yillarda “o'qitishning kompleks dasturlari” ishlab chiqildi. Bu turli variantlarda bo'lib, bir necha marta o'zgardi va 10 yil mobaynida qo'llanildi. Geografik materiallar kompleks mavzular orasida singib ketdi. Geografiyani o'rganish juda past saviyada olib borildi. Kompleks dasturlarining uzoq hukmronligi maktab geografiyasi uchun og'ir davr bo'ldi. 1925-1926 yillarda maktablarning yuqori sinfida geografiya dasturlaridan umuman chiqarib tashlandi. Geografiya tibbiyot, fizika, ijtimoiy fanlar tarkibida o'rganiladi. Kartani o'rganish nihoyatda zaif bo'ldi. Yuqoridagi fanlar geografiyani o'qitish vazifalarini mutlaqo bajara olmadilar. Kompleks metod asosida predmetsiz o'qitish yo'li edi. Oktabr to'ntarishidan keyin Sovet maktabini isloh qilishdan boshlandi. Darslar maxsus

qarorlar asosida 9 yillik yagona mehnat maktablari tashkil etildi. Bu maktab 2 bosqichdan iborat. 1-bosqich 1-5 sinflar, 2-bosqich 6-9 sinflardan iborat. Bunday maktabda geografiya ta'limi maqsad va mazmun jihatdan o'zgardi. 1918-1922 yillarda geografiyadan na'munaviy dasturlar paydo bo'ldi. Bunda ayrim landshaftlarning xususiyatlarini o'rganishga ko'proq e'tibor berildi. O'sha davrlar "landshaft dasturlari" bilan mashhurdir. Masalan, "ovchilar landshafti", "ko'chmanchilar landshafti" va x.k. Landshaft dasturlari o'zini oqlamadi. 1921 yilda geograf D.N.Anuchin rahbarligida umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan geografiya dasturi loyihasi ishlab chiqildi. Ungacha ayrim hududlar, xatto, ayrim maktablar xuddi landshaftlar dasturiga o'xshash bo'lgan dasturlarni o'zlari tuzar edilar. Anuchin dasturi Oktabr to'ntarishiga qadar bo'lgan geografiya ta'limini eng yaxshi tomonlarini qisman bo'lsa ham o'ziga aks ettirgan bo'lib, unda geografiyani o'qitish sinflar boyicha taqsimlangan edi. Anuchin dasturiga muvofiq 3- sinfda o'z qishlog'i, shahari, guberniyasi o'rganilar edi. Bu turni mamlakatshunoslik deb ataydi. O'quvchilar geografik nomlar, tushunchalar geografiyasiga oid rasmlar bilan tanishtirilar edi. 4-sinfda mamlakatlar turli mintaqalarning tabiati, insonlar hayotini aks ettiruvchi rasmlar namoyish qilindi. 5-sinfda mamlakatshunoslikka oid bo'lgan ma'lumotlar va "qit'alar geografiyasi" o'rganilar edi. 6-8 sinflarda Rossiya geografiyasi, 8-sinfda iqtisodiy geografiya, 9-sinfda astronomiya va astrologiya o'rganilar edi. Mazkur dastur o'quvchilarning geografiyaga oid bilimlarini oshirishga katta rol oynaydi. Unda geografiyaga ajratilgan soatlar miqdori ancha ko'p edi. 1924 yildan 1930 yillarda maktab geografiya ta'limi uchun og'ir yillar bo'ldi. 1924 yildan boshlab maktab geografiyasi yangicha dasturlar asosida ishlashga o'tdi. Ammo bu darsliklar boyicha, geografiya boyicha alohida predmetlar yo'q edi. Unda geografiyadan uzuq-yuluq bilim berilar edi. 1-4 sinflarda alohida geografiya kurslari o'rnini kompleks mavzular egalladi. Bu mavzular mazmuniga qisqacha geografik savolda mahalliy tabiat va xo'jalik bilimlari berilar edi. 4-sinfda Rossiya geografiyasi va boshqa fanlar geografiyasi o'rgatilar edi. Masalan: 1-sinfda yil fasllari, 2-sinfda mahalliy tabiat va xo'jalik bilimlari edi. 4-sinfda Rossiya geografiyasi va boshqa fanlar geografiyasi o'rgatilar edi. 2-bosqich sinflarda geografiya, biologiya, tarix, jamiyatshunoslik fanlari tarkibiga singib ketgan edi. Tabiiy geografiya va mamlakatshunoslik haqida bilimlar nochor ahvolga tushib qolgan edi. Xullas, kompleks dasturlarning qabul qilinishi geografiyani mustaqil fan sifatida barham topishiga olib keldi. Faqat 1927-yilda avval 1-bosqich maktablarida, keyinroq 2-bosqich sinflarida geografiya fan sifatida qayta tiklandi. O'zbekistonda 1920-1930 yillar oralig'ida geografiya darsliklari rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilindi. G.N.Ivanovning "boshlang'ich jo'g'rofiya" darsligi geografiya darsliklarining to'ng'ichi edi. Bu darslik 1927 yilda

N.L.Korejnevskiy yordamida P.Arxejelskiy tomonidan o'zgartirib nashr qilindi. G.N.Ivanov, G.G.Ivanovlarning Baxtiyorov va Makarov bilan hamkorlikda birmuncha o'zgartirib nashr qilingan "Jo'g'rofiya ham o'lkani o'rganish" darsligi ham o'zbek tilidagi dastlabki daarsliklardan edi. Bu davrda Balashovning "O'zbekiston hamda unga qo'shni jumhuriyatlar va viloyatlar", P.Arxejelskiyning "Jo'g'rofiya" (o'lkani o'rganish darsligi), A.Obidovning "O'zbekiston sotsialistik sho'rolar jumhuriyati jo'g'rofiyasi" darsliklari geografiya ta'limida katta ahamiyatga ega bo'ldi. A.Obidovning "O'zbekiston jo'g'rofiyasi" darsligi O'zbekiston geografiyasi ta'limida o'z Respublikasini o'rganishda 1-haqiqiy asar o'zbek tilida dastlabki geografiya metodikasi paydo bo'ldi. Uning muallifi N.Monov edi. Geografiya metodikasi suhbatlar metodida yozilgan bo'lib, u holat kamchiliklarga ega bo'ldi. Unda kartalar bilan ishlash metodlari yoritilmagan edi. O'zbekiston maktablarida geografiya o'qitish samaradorligini oshirishda 1925 yildan boshlab chop etilayotgan "Maorif va o'qituvchi" jurnalining jurnalining roli katta bo'ldi. Jumladan ushbu jurnallarning 1925 yil 5-6 sonlarida "Jo'g'rofiyaning foydasi", "Lug'at va atamalar", "Samarqand", "Maktabda o'lkani o'rganishning ahamiyati", "Muz davrining oxirlarida Yevropada qanday irqlar yashadilar". "Sahroi Kabir" va boshqa o'nlab geografiyaga oid maqolalar e'lon qilinadi. Bu jurnal geografiya o'qituvchilariga ilmiy va metodik jihatdan yaqindan yordam berdi. 1931 yil 4 iyuldan "Madaniy inqilob" (keyinchalik "O'qituvchilar gazetasi", hozirda "Ma'rifat") gazetasi chiqa boshladi. Bu gazeta geografiya o'qituvchilarining haqiqiy yordamchisi bo'ladi. Unda yuzlab ilmiy, uslubiy maqolalar e'lon qilindi. Geografiya ta'limida kadrlar yetishtirish masalasi sekin asta yo'lga qoyildi. 1927-yilda Samarqand oily pedagogika instituti ochildi. 1937-yillar oxirlariga kelib oily malumotli geografiya o'qituvchilari yetishib chiqa boshladi. Bular N. Ibodov, G. Nazarov, I.Mirzaboyev, A.Axrоров va boshqalar edi. 1930-yillarning o'rtalarida Toshkent, Buxoro, Samarqand 364 keyinchalik Nukus, Urganch, Qo'qon, Andijon shaharlarida pedagogika institutlari ochildi. Maktab geografiyasining taqdirini hal etishda maktab geografiyasi va ilmiy geografiyasining taqdirini hal etishda maktab geografiyasi va ilmiy geografiyasining taqdiriga katta BKPning 1931-yil 5- sentabr va 1932-yil 25-avgust qarori tasir etdi. Geografiyani boshqa fanlar tarkibida o'rganishga qat'iy xotima berdi. Geografiyani boshqa predmetlar orasida teng huquqli bo'lishiga imkon yaratdi. Geografiyaning alohida fan ekanligini isbotlab berdi. Pedagogika institutlarida geografiya o'qituvchilarining maxsus tayyorlash masalasini ham hal etadi. Geografiya dasturini, kartani, tabiiy geografiya asoslarini bilish kapitalistik mamlakatlarini o'rganish zarurligi masalalari qarorda alahida o'qitiladi. O'zbekistonda maktab geografiyasi taqdirini hal qilishda BKP ning 1934-yil 15-may

qarori alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Qarorda boshlang'ich va o'rta maktablarda geografiya o'qitilishining sifatsizligi, kartalarning maqsadga muvofiq emasligi, mavzularning quruqligi, darsliklarning raqamlar bilan to'laligi. Ayniqsa maktabni bitirib chiqayotgan o'quvchilarning geografiyadan bilimlarining sayozligi va sifatsizligi tanqid ostiga olindi. Qaror geografiyani qanday o'qitish to'g'risida har bir sinfda geografiya fanlarini o'qitishda ayrim ko'rsatmalar berdi Bu qarorga muvofiq geografiya talimi 3 bo'g'inga bo'lib o'qitika boshlandi. Geografiyadan haftalik soatlar bir muncha ko'paydi. Bu qaror o'quvchilar yoshini e'tiborga olgan holda ko'rgazmali va qiziqarli bayon qilishni talab qiladi. 1934- 1935 o'quv yilidan boshlab yangicha dasturlarga o'tildi. Bu dasturlarga asosan yangi darsliklar , ilmiy ommabop adabiyotlar, atlas kartalar o'qituvchilar uchun o'quv metodik qo'llanmalarni yaratishga kirishildi. 1934 yilgi qaroridan keyin "Geografiya v shkole" jurnalining chiqa boshlashi nafaqat Rossiyada , balki O'zbekistonda ham geografiya ta'limini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ilg'or o'qituvchilar, oily va o'quv yurtlari o'qituvchilari geografiyadan qo'llanmalar yaratishga jalb qilindi. 1960 yildan boshlab geografiya ta'limi metodikasiga oid maxsus qo'llanma va darsliklar nashr etila boshlandi. O'sha davrlarda O'zbekistonda geografiya fanini takomillashtirishda A.Obidov, O.Saidrasulov, H.Hasanov, N.Daminov va boshqalarning xizmatlari katta bo'ldi. Umumta'lim maktablari va oily o'quv yurtlari uchun geografik adabiyotlar, darsliklar va metodik qo'llanmalarni tarjima qilish keng tus oldi.Umumta'lim maktablarni takomillashtirish va rivojlantirishda maktabni isloh qilishga tayyorgarlik ishlari ko'rib chiqildi. Isloh geografiya ta'limi mazmuniga ham ta'sir qilmasdan qolmadi. Maktab geografiya kurslari tarkibida ham ba'zi o'zgarishlar 365 paydo bo'ldi. Ta'limning 11 yillik tizimiga o'tish bilan geografiyani o'qitishda ham mehnat ta'limi kasb hunar yo'nalishiga e'tibor kuchaytirildi. Sobiq SSSR tugatilishi arafasida maktabni qayta isloh qilish uchun kurashlar va harakatlar bo'ldi .Lekin ular o'zini oqlamadi. O'zbekistonning mustaqillikka erishishi geografiya ta'limida tub o'zgarishlarga olib keldi.Darslarda o'quvchilarning mustaqil va amaliy ishlariga e'tibor kuchaydi. 1935-yilda O'rta Osiyo universitetida geografiyageologiya fakulteti tashkil etildi. 1935-1940-yillar mobaynida O'zbekistonda pedagogika institutlarining aksariyatida geografiya mutaxassisligi ochildi.1943- yilgacha Respublikada 10ga yaqin o'qituvchilar instituti ochildi.Ularda geografiya o'qituvchilari ehtiyojlarini hisobga olib, ularga metodik yordamlarini kuchaytirish maqsadida o'qituvchilar malaakasini oshirish institutlari, ular bazasida esa geografiya kabinetlari va kafedralari tashkil etiladi.Geografiya ta'limi har tomonlama rivojlanishida buyuk iqtisodiy-geograf N.N.Baranskiyning xizmatlari katta.U mualliflik qilgan iqtisodiy geografiya

darслиgi 20yil mobaynida muntazam rivojlanishda nashr etilib ko'ridi. N.N.Baranskiy "O'qituvchi-ta'lim jarayonida markaziy figura" deb qayta-qayta ta'kidlangan. U geografiya ta'limida yetakchi o'rinni karta va ko'rsatmalilik egallashi zarur. deb "Karta geografiyaning ikkinchi tilidir", "Karta-geografiyaning alfas va olichasi", "Birgina karta bir necha varaq matnning o'rniga o'tadi" degan o'lmas fikrlar va g'oyalarni o'rtaga tashlaydi. N.N.Baranskiy sobiq ittifoq miqyosida geografiya o'qituvchilari tayyorlash ishiga ulkan hissa qo'shgan buyukshaxsdir. II jahon urushi ham geografiya ta'limiga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmadi. Ko'pgina geografiya o'qituvchilari frontga jo'nab ketdilar. Oliy o'quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlash izdan chiqdi. o'quv qo'llanmalar umuman yetishmay qoldi. Urushdan keyingi yillarda maorif sohasida talaygina yutuqlar qo'lga kiritildi. Dastlab 4yillik, keyin 7va8 yillik to'liq o'rta ta'limga bosqichma-bosqich o'tilishi, ta'lim mazmunini tubdan qayta qurishga yordam berdi. Bu davrda geografiya o'qituvchilari diqqati ko'proq o'quv jarayonini amaliyot bilan bog'lashga qaratildi. Geografiya ta'limini hayot bilan bog'lash borasida tabiiy sharoitning xalq xo'jaligidagi ahamiyatiga e'tibor berildi. O'z o'lkasi geografiyasini o'rganish va o'z joyining kartasini chizish, ob-havoni kuzatish, o'z joyidagi barcha tabiiy kompleks komponentlarini o'rganish geografiyani turmush bilan bog'lashga qaratildi. Maktabni hayot bilan bog'lash haqidagi qaror asosida o'quvchilarning mustaqil ishlariga katta e'tibor berildi. O'zbekiston geografiyasini o'rganishga bir muncha e'tibor kuchaydi. 1953-1954-o'quv yillaridan boshlab amaliy mashg'ulotlarni uyushtirish majburiy tarzda, maktab geografiya dasturlariga kiritildi. O'quvchilar dunyoqarashini shakllantirishga, mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalashga e'tibor kuchaydi. 1958-yil 24-dekabrda Oliy Sovetning maktab haqidagi qonuni geografiyaning takomillashuvida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu qonun boshqa fanlar qatori geografiya ta'limini ishlab chiqarish mehnati bilan yaqinlashtirishga e'tiborini kuchaytirdi. Geografiya ta'limida o'z o'lkasini chuqurroq o'rganishga bo'lgan talab oshdi. Ozbekistonda geografiya ta'limini takomillashtirishda bir qancha ilmiy maskanlar va oily o'quv yurtlari qatori Pedagogika fanlari ilmiy tekshirish institutlaridagi geografiya laboratoriyasining xizmatlari katta bo'ldi. Bu institut geografiya laboratoriyasida P.Musayev rahbarligidagi metodist geograf olimlar maktabda geografiya o'qitishni takomillashtirish boyicha qator izlanishlar olib bordi. P.Musayev o'sha mustamlaka yillarda ham hadiksirasidan milliy maktab muammolari boyicha g'oyat dadil fikrlarini ilgari surdi. 1960-yildan boshlab geografiya ta'limi metodigasiga oid maxsus qo'llanma va darsliklar nashr etildi. O'sha davrda O'zbekistonda geografiya fanini takomillashtirishda A.Obidov, O.Saidrasulov, H. Hasanov, N.Daminov, Z. Akramov, O. Mo'minov, M.Nabixonov, I.Mirzaboyev va

boshqalarning xizmatlari katta bo'ldi. Umum ta'lim maktablari va o'quv yurtlari uchun geografik adabiyotlar, darslik va metodik qo'llanmalarni tarjima qilindi. Bunda H. Hasanov, P. Sultonov, M. Qoriyev, P. G'ulomov, R. Rahimbekovlar unumli mehnat qildilar. Jumladan: N.F. Kurazovning "Geografiya o'qitish metodikasi" (1962), P. Budanovning "Tabiiy geografiya metodikasi" (1905), A.B. Darinskiyning "Geografiya o'qitish metodikasi" (1964), N. Dalimovning "O'zbekiston tabiiy geografiyasi" yangi darslik bo'lib chiqdi. 1960- yillardan boshlab O'zbekistonda geografiya ta'limi geografiasining turli yo'nalishlari boyicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. O. Mo'minov "O'zbek maktablarida tabiiy geografiya o'qitish masalalari" (1967), T. Abdullayeva "Tabiiy geografiya o'qitishda o'lkashunoslik materiallaridan foydalanish" (1967), M. Nabixonov "SSSR Geografiasida badiiy ko'rsatmali vositalarning roli va qo'llanilishi" (1969) Ilmiy amaliyotimning so'ngi haftasida esa Urganch Davlat Universiteti ARM va amaliyot o'tash joyimizdagi ma'lumotlar tahlili asosida dissertatsiya mavzuyimning 3-bobiga tegishli bo'lgan manbalar ya'ni hozirgi kunda Xorazmlik geograf olimlarimizning qilgan ishlari va rivojlanish bosqichlari haqida ma'lumotlar to'plashga harakat qildim. Bu borada juda ko'p ma'lumotlarni to'plashga ulgurdim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. "Tabiiy geografiya" (O'rta Osiyo tabiiy geografiasidan amaliy ish) Darslik (T., TDPU, 2014), 56.b.
2. Qoriyev M., Markaziy Osiyo tabiiy geografiasini, 2-nashr, T., 1968.
3. Qurbaniyozov R. Geografiya o'qitish metodikasi. Urganch-2001-y.
4. Maktab tabiiy geografiasini darslarida badiiy ijodiyotdan foydalanishning o'ziga xos jihatlari va xususiyatlari A.T. Sobirxonov ilmiy maqolasi. Namangan davlat universiteti
5. Рахимов А.К., Болтаев Б.К. Некоторые геоэкономические и геоэкологические решения по смягчению проблемы аральского моря или экологического риска //Международный журнал менеджмента и экономики. – 2022. – Т. 2. – №. 11. – С. 1-5. 6.
6. Рахимов А. К., Гафурова Д. А. Природные и социально-экономические предпосылки с возможным районированием и развитием урбанизации //Научный альманах. – 2015. – №. 11-1. – С. 477-484.